axloqi, olamga, odamga, o‘ziga nisbatan tasavvurida namoyon bo‘lar ekan, u insonda yuksak ma’nodagi vatanparvarlik hissini uyg‘otib, uni ma’naviy oziqlantirib, uni sog‘lom e’tiqodga otlantiruvchi kuchga aylanadi. Ushbu tuyg‘u insonning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishi uchun muhim bo‘lsa-da, uning o‘zi va jamiyatdagi munosabatlarini mustahkamlash, yosh avlodga total faoliyatda o‘rnak bo‘lish imkoniyatlarini kengaytirish uchun ahamiyatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Zamonaviy sharoitda vatanparvarlik tarbiyasini yanada yuksaltirishning dolzarb masalalari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari (2016-yil 20-avgust). Toshkent, O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2016.

(2). Usmonov K. O‘zbek xalqi ma’naviy-axloqiy merosida harbiy vatanparvarlik g‘oyalarining talqini. Fals. dok. (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati, Toshkent, 2017, 52-bet.

(3). Alixonto‘ra Sog‘uniy. Turkiston qayg‘usi. Arab imlosidan kirillga o‘tkazib, nashrga tayyorlovchilar: Ahadxonto‘ra G‘apporov Uvaysxonto‘ra Shokirov. https://kutubxonachi.uz/media/books/turkiston-qaygusi_kutubxonachi.uz.pdfyu. Kutubxonachi.uz - @KutubxonachiUz. - B. 100.

(4). A.Mavrulov. Vatan nima? Vatanparvarlik-chi? “Yangi O‘zbekiston” gazetasi 28-fevral, 2024. https://yuz.uz/ news/vatan-nima-vatanparvarlik-chi

(5). Akramova Sh. Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning dolzarb masalalari. T., «Ma’naviyat», 2018, 31-bet.

Djavotova Ohista Djamol qizi (Sharof Rashidov nomidagi SamDU 1-bosqich tayanch doktoranti)

TA’LIM-TARBIYA SISTEMASIDA TILNING KONSTRUKTIV IMKONIYATLARI

Annotatsiya. *Inson hayotining ajralmas, atributiv elementlaridan biri til hisoblanadi. Til nafaqat inson hayoti, tafakkuri va faoliyati taraqqiyotiga, balki butun bir jamiyat va davlat rivoji uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Til muloqot vositasi bo‘lib kishilarning ilmiy dunyoqarashi, falsafiy tafakkuri, bilish qabiliyati, nazariy bahs olib borish san’ati, mantiqiy fikrlash tarzini shakllantirishning fundamental asosi hisoblanadi. Vaholanki, inson dunyoga kelishi bilanoq uni his-tuyg‘ularini yetkazib berishning eng oddiy, eng daslabki vositasi til sanaladi. Til inson hayotida oddiylikdan murakkablik tomon rivojlanib, takomillashib, boyib boradi. Tilning mazkur takomillashuvi jarayonida ijtimoiy muhit, shu jumladan, ta’lim va tarbiya sistemasi muhim ahamiyat kasb etadi.*

Kalit so‘zlar: *til, tafakkur, mantiq, ta’lim, tarbiya, zamonaviylik, jamiyat, inson, til funksiyalari.*

КОНСТРУКТИВНЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ ЯЗЫКА В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СИСТЕМЕ

Аннотация*. Язык является неотъемлемым, атрибутивным элементом человеческой жизни. Он играет важную роль не только в развитии человеческой жизни, мышления и деятельности, но и в прогрессе всего общества и государства. Язык, будучи средством коммуникации, является фундаментальной основой формирования научного мировоззрения, философского мышления, познавательной способности, искусства ведения теоретических дискуссий и логического рассуждения. С момента рождения человека язык становится его первичным и самым простым средством выражения чувств и эмоций. В процессе жизни язык развивается от простого к сложному, совершенствуется и обогащается. В этом процессе важную роль играет социальная среда, включая систему образования и воспитания.*

Ключевые слова: *язык, мышление, логика, образование, воспитание, современность, общество, человек, функции языка.*

CONSTRUCTIVE POSSIBILITIES OF LANGUAGE IN THE EDUCATIONAL SYSTEM

Annotation. *Language is an integral, attributive element of human life. It plays an important role not only in the development of human life, thinking and activity, but also in the progress of the entire society and state. Language, being a means of communication, is a fundamental basis for the formation of a scientific worldview, philosophical thinking, cognitive ability, the art of conducting theoretical discussions and logical reasoning. From the moment a person is born, language becomes his primary and simplest means of expressing feelings and emotions. In the course of life, language develops from simple to complex, improves and enriches. In this process, the social environment, including the education and upbringing system, plays an important role.*

Key words: *language, thinking, logic, education, upbringing, modernity, society, man, functions of language.*

Kirish (Introduction). Insoniyat jamiyati paydo bo'libdiki, tilga ihtiyoji va e'tibori yuksalaib borgan. Til (zabon) insonlarning bir-birini tushunishi, tafakkur imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi, o'zaro fikr almashinuvi uchun doimo muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Ayniqsa, ta'lim va tarbiya jarayonida til juda katta funksional ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Insoniyatning dastlabki simvolik muloqotidan tortib, bugungi kundagi raqamlashgan muloqotigacha bo'lgan davrda til mislsiz keng imkoniyatlarni taqdim etgan. Zero, til nafaqat inson hayotining ajralmas tarkibiy qismi, balki uning tafakkuri, nutqi, bilish darajasi, mantiqiy fikrlash qobiliyatini boyitadigan eng asosiy qurol sanaladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Til muammosi, uning vujudga kelishi, shakllanishi, maqsadi, vazifalari jamiyat va inson hayotida tutgan o'rni azal-azaldan olimlar diqqat markazida bo'lib kelgan. Ayniqsa, "XX asrda til falsafasining shakllanishi tilning tabiatiga bo'lgan qiziqishni uyg'otadi, turli qarashlar ular orasida raqobatni kuchaytiradi. Biroq an'anaviy ontologiya va bilish nazariyasida empirik va ratsionallik paradigmalaridan farqli o'laroq, tilning yangi modellari umumiy tezisni birlashtirdi, bu tezisga ko'ra, ongning borliqqa munosabati til orqalidir. Til ong va borliqning barcha strukturalari ichiga kirib ketadi" [4;608-b.]. Til falsafasi falsafafiy tadqiqotlar doirasida P.I.Jitetskiy, A.Marti, K.Vossler, O. Funke, M.M.Baxtin, V.N.Voloshinov, shuningdek, Gerder, Gumboldt, Grimm, Lipps ilmiy izlanishlarida turli nuqtayi nazardan tahlil etiladi. Mamlakatimizda nafaqat tilshunoslik, balki falsafa va mantiq ilmi doirasida ham til muammosi yuzasidan qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. Jumladan, faylasuf olimlari-mizdan J.Yaxshilikov [10;165-b.]ning mantiq ilmida til, nutq, aql va fikr uyg'unligi borasida, B.Turayev [5] ning ontologiya, gnoseologiya, logika va fan falsafasi muammolari doirasida, D.Fayzixo'jayeva [6;201-b.] ning til hamda uning funksiyalari borasida, R.Xudoyberganov [7;273–278-b.]ning zamonaviy til falsafasi hamda tilning ilmiy-falsafafiy xususiyatlari doirasidagi tadqiqot ishlari diqqatga sazovordir.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Tadqiqot ishida ilmiy bilishning analiz va sintez, tizimli tahlil, obyektivlik, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, tarixiylik va mantiqiylik, sinergetik tahlil kabi usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Inson hayotining ajralmas, atributiv elementlaridan biri til hisoblanadi. Til muloqot vositasi bo'lib, kishilarning ilmiy dunyoqarashi, falsafiy tafakkuri, bilish qabiliyati, nazariy bahs olib borish san'ati, mantiqiy fikrlash tarzini shakllantirishning fundamental asosi hisoblanadi. Til inson hayotida oddiylikdan murakkablik tomon rivojlanib, takomillashib, boyib boradi. Tilning mazkur takomillashuvi jarayonida ijtimoiy muhit, shu jumladan, ta'lim va tarbiya sistemasi muhim ahamiyat kasb etadi. Falsafiy tadqiqotlar doirasida til masalasini, uning bugungi zamonaviy jamiyatdagi keng ko'lamdagi imkoniyatlarini tahlil etish dolzarb hisoblanadi. "Til insonning inson bilan, insonning mashina (kompyuter) bilan o'zaro aloqasini ta'minlovchi axborot belgilari tizimi. Til tafakkur bilan uzviy bog'liq bo'lib, fikrimizning bevosita mavjud bo'lishini ta'minlaydi va kishilar o'rtasida aloqa o'rnatishga xizmat qiladi. Tilni o'rganish mantiq fanining muhim vazifalaridan biri" [6;199-b.] hisoblanadi. Demak, bugungi kunga kelib tilning zamonaviy shakl va ko'rinishlari bilan bir qatorda, uning xususiyati va funksiyalari ham yanada takomillashib bormoqda. Zamonaviy ilm-fanda, falsafada, mantiq ilmida til va haqiqat, til va axloq, til va madaniyat, til va san'at, shu bilan birga, til va bahs yuritish mahorati masalalari ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etilib kelinmoqda. Vaholanki, til jamiyat hayotining har qanday jabhasida faol ishtirok etadigan qurol sanaladi. Ayniqsa, bilish jarayonida tabiiy va sun'iy til uyg'unligidan tashkil topgan ilmiy tilning mazmun-mohiyati kundan kunga yanada takomillashib bormoqda.

A.Hamdamova ta'biri bilan aytganda, "Til bu ijtimoiy hodisadir. Jamiyat rivojida til o'z mohiyatini ko'rsatadi. Til yana o'yin faoliyatining bir shaklidir. Aniq til o'yini oqibatini oldindan aytib bo'lmaydi. Muayyan bir hodisani bayon etish uchun foydalaniladigan til o'yinlaridagi so'zlar hammaga taalluqli emas (ular to'la umumiylikka ham ega bo'lmaydi) [8;11-b.]. Demak, til butun bir ijtimoiy turmush tarzida namoyon bo'ladigan, davr nuqtayi nazaridan kelib chiqib zamonaviylashib boradigan hodisa sanaladi. Shu bilan birga, til individual va ijtimoiy ta'sir etish xususiyatiga ham egadir. Jamoada, ijtimoiy hayotda qo'llaniladigan til mazmunan jamoaviylikka, diologik jarayonlarda esa ko'proq individuallikka xos shaklda namoyon bo'ladi.

"Til funksiyalari kommunikatsiya va bilish jarayonida til vositasida amalga oshiriladigan asosiy vazifadir. Til qanday maqsadlarga qo'llanilishiga qarab turli holatlarda turlicha funksiyalarni bajarishi mumkin. Mantiq ilmida tilning tasvirlovchi va baholovchi funksiyalari farqlanadi. Til vositasida voqea va hodisalarni tasvirlaganda ular voqelikka nisbatan taqqoslanib, "chin" yoki "yolg'on" deb ko'rsatiladi. Baholash funksiyasida esa dastlabki mulohazadagi holat "yaxshi", "yomon", "birdek" deb tavsiflanadi. Tasvirlashdan maqsad so'zning voqelikka mos kelishi bo'lsa, baholashdan maqsad olamning fikrga mos kelishidir" [6;201-b.]. Demak, til qanday holatda, qanday vaziyatda, qaysi vaqtda va qanday maqsadni ko'zlash

xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, ma'lum bir funksiyalarni bajarishi mumkin. Yuqorida keltirilgan funksiyalar tilning mantiq ilmidagi asosiy vazifalarini ochib bermoqda.

Bizningcha, jamiyat hayotida, shuningdek, ta'lim va tarbiya jarayonida til quyidagi funksiyalarni bajarishi mumkin:

– ilmiy, mantiqiy, kreativ, kognitiv, proyektiv tafakkur tarzini shakllantiradi;
– kommunikativlik funksiyasini amalga oshiradi;
– ta'lim va tarbiya samaradorligini oshiradi;
– konstruktiv va destruktiv ta'sir etish vositasi bo'lib xizmat qiladi;
– oqilona muloqot qilish madaniyatini shakllantiradi;
– regulyativlik imkoniyatini oshiradi;
– o'zaro bahs olib borish mahoratini oshiradi;
– haqiqatni yetkazish vositasi bo'lib xizmat qiladi;
– aratorlikni rivojlanatiradi va h.k.

Ta'lim-tarbiya jarayonida tilning konsruktiv mohiyatini oshirish, uning funksional, ratsional imkoniyatini kengaytirish uchun tilni shakllanishiga, yanada rivojlanishiga ta'sir etuvchi ma'naviy va ma'rifiy asoslarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ayniqsa, tilning konstruktiv imkoniyatini shakllantirish va oshirishda ta'lim va tarbiya jarayoni muhim nazariy-amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi. Tilning konstruktiv imkoniyatlari shakllanishida inson yashaydigan, ta'lim va tarbiya oladigan ijtimoiy muhitning ta'siri juda muhim sanaladi. Til oilada, jamiyatda, ta'lim dargohida konstruktivlik mohiyatini mustahkamlaydi. Tilning to'g'ri shakllantirilishi to'g'ri fikr yuritish bilan belgilanadi. To'g'ri fikr yuritishni shakllantirishning dastlabki manbayi ta'lim va tarbiya jarayoni hisoblanadi. Shu boisdan ham ta'lim va tarbiya sistemasining har bir bo'g'inida til masalasiga oqilona yondashuv shakllantirilmog'i zaruriy ahamiyat kasb etadi. Inson ko'p hollarda, fikrlagan, o'ylagan, tafakkur qilgan narsa va hodisalarini til orqali nutqda ifodalaydi. Shu boisdan tafakkur tarbiyasi, uning oqilona yo'naltirilganligi tilning qay darajadagi konstruktiv imkoniyatga ega ekanligini ochib beradi

Til yordamida bilimlar hosil qilinadi, to'planadi va bir avloddan boshqa avlodga yetkazib beriladi. Shu tariqa, u ta'lim va tarbiya ishlarini amalga oshirishga, madaniyatimizni taraqqiy ettirishga yordam beradi. Ta'lim va tarbiya jarayonida mantiqiy tafakkurni shakllantirish tilning konstruktiv imkoniyati doirasida amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir. Bugungi kunga kelib, til muammosi fenomenologik, germenevtik yo'nalishlar doirasida ham tadqiq etilmoqda. "Fenomenologiya bu til to'g'risidagi intensional aktlar, ya'ni maqsadli voqea-hodisalar kechinmasi, ko'rinishidir. Fenomen grekcha so'z bo'lib, "ko'rinayotgan, bilinayotgan" degan ma'noni bildiradi. Bu yerda inson ongi va uning hissiy tajribasi hamda anglash jarayonida ko'ringan, bilingan holat nazarda tutiladi. …Bu yo'nalishda til va ong munosabatiga alohida e'tibor qaratiladi. Unga ko'ra, til ongga berilgan fenomenlarning alohida fenomenologik jihatdan "tozalash" qurilmasidir [7;274-b.]. Demak, ongga berilgan har qanday voqea-hodisa ham reallikka ega bo'lavermaydi. Ayrimlari ongda, yoxud ong ostida saqlanadi. Til ongdagi hodisalarni, anglab yetilgan tushunchalarni "sintezlab" voqelikka aylantirish vositasi hisoblanadi. Bu jarayon tilning fenomenologik tahlilida yanada oydinlashadi. "Germenevtik yondashuvga ko'ra, til bu borliqning mustaqil qismi hisoblanadi. Unga ko'ra, tajribaning shakllanish mexanizmi ham tilda "joylashgan"dir. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, til insonning dunyoga bo'lgan munosabatini ifodalaydi. Chunonchi, til yordamida inson voqelikni nazariy bilibgina qolmay, uni hayotiy amaliy "sinovdan" o'tkazish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu ma'noda, uchlik: dunyoning mohiyati – til – yashashga amal qilinadi" [7;276-b.]. Demak, til vositasida voqelik faqatgina anglanmasdan yoxud nazariy tushunib yetilmasdan, balki amaliy tajribada ham namoyon bo'ladi. Uning namoyon bo'lishida turli til vositalari, jumladan, imo-ishoralar, vizual harakatlar, paralingvistik hamda ekstralingvistik harakatlar ishtirok etishi mumkin.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Birinchidan, zamonaviy jamiyatda tilning zamonaviy shakl va imkoniyatlari kengayib bormoqda. Uning vazifalari tobora murakkab va serqirra ko'rinishda namoyon bo'lmoqda. Shundan kelib chiqib, ta'lim va tarbiya jarayonida tilning konstruktiv mohiyatini yanada chuqur anglash, tizim taraqqiyotiga xizmat qilish imkoniyatlarini nazariy-falsafiy jihatdan ochib berish zaruratga aylanmoqda.

Ikkinchidan, ta'lim va tarbiya jarayonida til ilmiy, mantiqiy, kreativ, kognitiv, proyektiv tafakkur tarzini shakllantirib, kommunikativ, konstruktiv, regulativ funksiyalarni bajaradi hamda haqiqatni voqelikka aylantirishda, shuningdek, bahs san'ati, muloqot madaniyatini shakllantirishda muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Uchinchidan, til ta'lim va tarbiya taraqqiyotini belgilab beruvchi, jamiyatning progressiv rivojini ta'minlashga xizmat qiluvchi, inson ongi va tafakkuri, bilishi natijadorligini, ko'lami va samaradorligini ko'rsatib beruvchi eng muhim vositalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Bekmirzayev N. Nutq madaniyati va notiqlik asoslari (o'quv qo'llanma). T., 'Fan", 2007.
(2). Gusserl E. Logicheskie issledovanie. M., 1998.
(3). Лингвопоэтика русской литературы эпохи постмодерна. СПб., изд-во С.-Петерб. ун-та, 2007.
(4). Липкин А.И. (ред.). Философия науки. "ЭКСМО", 2007.
(5). Mamadiyeva N. Falsafa (mantiq qismidan). O'quv qo'llanma, Toshkent, 2011.
(6). Файзихўжаева Д. Мантиқ: изоҳли луғат. Т., "Tamaddun", 2015.
(7). Xudayberganov R. Tilning ilmiy-falsafaiy xususiyatlari. Oriental Renaissance. Innovative, educational, natural and social sciences. 3(1/2), Jan., 2023.
(8). Hamdamova A. Falsafa. T., 2008.
(9). Ergasheva M. Ta'lim taraqqiyoti: sinergetik tahlil. Samarqand, SamCHTI, 2022.
(10). Yaxshilikov J.Y., Muhammadiyev N.E. Falsafa. Darslik, Samarqand, SamDU, 2021.

Ergasheva Maxbuba Xotambekovna (Sharof Rashidov nomidagi SamDU professori (v.b), f.f.d. (DSc); maxbubaergasheva84@gmail.com)

O'ZBEK FALSAFASIDA ZARDO'SHTIYLIK TA'LIMOTI VA "AVESTO"NING TUTGAN O'RNI

Annotatsiya. *Markaziy Osiyo, xususan, O'zbekiston ilm-fan, din, falsafa, adabiyot, san'at qadimdan rivojlangan hududlar sarasiga kiradi. O'zbekiston zaminida qadimiy diniy va falsafiy tafakkur rivojining yorqin misoli sifatida muqaddas tarixiy yodgorlik "Avesto"ni keltirib o'tish maqsadga muvofiqdir. Bu muqaddas asarda ekologiya, falsafa va tarix sohalariga oid bilimlar barobarida ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-axloqiy, tarbiyaviy, maishiy masalalarga ham katta e'tibor qaratilgan. Jumladan, "Avesto" tufayli qadimgi ajdodlarimiz ongiga ilm, qalbiga ro'shnolik, qo'liga hunar olishga intilishgan. "Avesto"ni o'ziga xos diniy-falsafiy manba sifatida tadqiq etish XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlangan bo'lishiga qaramay bu manba haqidagi ilmiy munozaralar hamon davom etmoqda. "Avesto", falsafiy, ma'naviy, ma'rifiy, axloqiy, siyosiy, huquqiy barhayot g'oyalari bilan bugungi kun falsafiy va ilmiy dunyoqarashini, tafakkur tarzini shakllantirish uchun ko'mak bera oladi.*

Kalit so'zlar: *"Avesto", zardushtiylik, ma'naviy meros, Markaziy Osiyo falsafasi, falsafiy tafakkur, ezgulik, yovuzlik, axloq, falsafiy-metodologik tahlil.*

ЗОРОАСТРИЙСКОЕ УЧЕНИЕ И РОЛЬ «АВЕСТЫ» В УЗБЕКСКОЙ ФИЛОСОФИИ

Аннотация. *Центральная Азия, в частности Узбекистан, является одним из регионов, где с древнейших времен развивались наука, религия, философия, литература и искусство. В качестве яркого примера развития древней религиозно-философской мысли на земле Узбекистана уместно привести священный исторический памятник «Авеста». Большое внимание также уделяется социально-экономическим, духовно-этическим, образовательным, бытовым вопросам. В частности, благодаря «Авесте» наши древние предки стремились приобрести знания в уме, просвещение в сердце и умения в руках. Несмотря на то, что исследование «Авесты» как уникального религиозно-философского источника началось во второй половине XVIII века, научные дискуссии об этом источнике продолжаются до сих пор. «Авеста» с ее философскими, духовными, просветительскими, нравственными, политическими, правовыми жизненными идеями может помочь сформировать философско-научное мировоззрение и образ мышления современности.*

Ключевые слова: *"Авеста", зороастризм, духовное наследие, среднеазиатская философия, философское мышление, добро, зло, этика, философско-методологический анализ.*

ZOROASTRIAN TEACHING AND THE ROLE OF THE AVESTA IN UZBEK PHILOSOPHY

Annotation. *Central Asia, in particular Uzbekistan, is one of the regions where science, religion, philosophy, literature and art have developed since ancient times. As a striking example of the development of ancient religious and philosophical thought on the soil of Uzbekistan, it is appropriate to cite the sacred historical monument "Avesta". Much attention is also paid to socio-economic, spiritual, ethical, educational, and everyday issues. In particular, thanks to the Avesta, our ancient ancestors sought to acquire knowledge in the mind, enlightenment in the heart and skills in the hands. Despite the fact that the study of the "Avesta" as a unique religious and philosophical source began in the second half of the 18th*